

**ALFRAGANUS UNIVERSITY HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI Ph.D.03/2025.27.12.Ped.31.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

BEKETOV NURSEIT ALIJAN O'G'LI

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR
ASOSIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MEKANIZMLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Beketov Nurseit Alijan o‘g‘li

Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta’lim sifatini oshirish mexanizmlari..... 5

Бекетов Нурсейт Алижан угли

Механизмы повышения качества образования в высших учебных заведениях на основе педагогических инноваций..... 27

Beketov Nurseit Alijan o‘g‘li

Mechanisms for improving the quality of education in higher education institutions based on pedagogical innovations.....55

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ61

**ALFRAGANUS UNIVERSITY HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.31.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

BEKETOV NURSEIT ALIJAN O'G'LI

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR
ASOSIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MEKANIZMLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.DSc/Ped314 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashining veb-sahifasida (www.afu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Botirova Shaxlo Isamiddinovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Mardanov Shukurullo Qoldoshevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rahmonova Muqaddas Qahramonovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Annayeva Nazokat Rajapbayevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alfraganus university huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.31.01 raqamli ilmiy kengashning 2026 – yil "30" aprel soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100190, Toshkent shahri, Yuqori Qoraqamish ko'chasi, 2a-uy. Tel.: +998 (78) 122-75-57; faks: +998 (78) 122-75-57, e-mail: info@afu.uz).

Dissertatsiya bilan Alfraganus university Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (11 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100190, Toshkent shahri, Yuqori Qoraqamish ko'chasi, 2a-uy. Tel.: +998 (78) 122-75-57).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 – yil "16" aprel kuni tarqatildi.
(2026 – yil "16" aprel dagi "10" aprel raqamli reestr bayonnomasi.)



N.A.Mirzayeva
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi v.v.b., p.f.d. (DSc), dotsent

M.D. Omonova
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.b.f.d.(PhD), dotsent

M.F. Qurbonova
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish, ta'lim sifatini oshirish hamda talabalarni kelajak kasbiy faoliyatiga puxta tayyorlash muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlar hamda innovatsion metodlardan foydalanishni taqozo etmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish masalasining dolzarbligini yanada kuchaytiradi. Oliy ta'lim muassasalarida samarali sifat menejmenti tizimini shakllantirish ta'lim jarayonining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi hamda talabalarni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos bilim, malaka va kompetensiyalar bilan ta'minlash imkonini yaratadi. Pedagogik innovatsiyalarni joriy etish jarayonida ta'lim sifatini baholashga xizmat qiluvchi aniq mezon va indikatorlarni belgilash ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Dunyoda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun pedagogik jarayonga yangi yondashuvlar hamda innovatsion o'qitish usullarini joriy etishni talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalar va zamonaviy ta'lim resurslaridan samarali foydalanish ta'lim jarayonining sifatini oshirishga, shuningdek, ta'lim oluvchilarning mustaqil o'rganish va o'z ustida ishlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni tatbiq etish nafaqat o'quv dasturlarini yangilash, balki o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali ta'lim jarayonida inklyuziv muhitni shakllantirishga imkon yaratadi. Hozirgi sharoitda oliy ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim sifatini oshirish masalasi global ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. YUNESKO tomonidan ilgari surilgan "Ta'lim 2030" strategiyasi ta'lim jarayonini samarador va inklyuziv qilishga qaratilgan bo'lib, unda ta'limning barcha bosqichlarida sifatni oshirish uchun innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar va o'zaro hamkorlikni rivojlantirish muhim deb belgilangan. Oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim imkoniyatlari va interaktiv platformalardan foydalanish o'qitish metodlarini takomillashtirishga xizmat qiladi, shu bois pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlar bugungi kunda ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Mamlakatimizda "ta'lim tizimini isloh qilish, xususan, oliy ta'limda zamonaviy yondashuvlarni qaror toptirish, bo'lajak pedagoglarda deontologik ko'nikmalarni rivojlantirishga hamda globallashuv davri va bozor iqtisodiyotiga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda oliy ta'lim tizimini isloh qilish, malakali kadrlarga bo'lgan talabni qondirish va milliy hamda kasbiy ehtiyojlarni innovatsion yondashuvlar asosida, xalqaro standartlarga mos ravishda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish dolzarb vazifalarga aylanmoqda."¹ Ta'lim jarayonida fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, shaxsning kompetensiyaviy imkoniyatlarini kasbga yo'naltirish orqali yanada

¹ Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni.

rivojlantirish zarurati paydo bo'lmogda. Bu jarayonda kompetentli kadrlar tayyorlash, yangi innovatsion yondashuvlar orqali "o'rganishdan o'rgatishgacha" tamoyilini amalga oshirish uchun innovatsion-integratsion yondashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4119-son "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni va 2020-yil 31-dekabrdagi "Malakalarni baholash tizimini tubdan shakllantirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4939-son qarori hamda mazkur faoliyat bilan bog'liq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi².

Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish hozirgi kunda global ta'lim sohasida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qabul qilinmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'qitish sifatini oshirish, talabalarning shaxsiy rivojlanishi, ijodiy salohiyatini kengaytirish va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishda jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Masalan, Arizona,

²Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida yoritilgan: <https://www.dissercat.com/skachat-besplatnye-dissertatsii-i-avtoreferaty-iz-rgb>; Ramsden, P. (2003). Learning to Teach in Higher Education. London: Routledge Falmer; Biggs, J., & Tang, C. (2011). Teaching for Quality Learning at University. McGraw-Hill Education; Hattie, J. (2009). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. Routledge. Fullan, M. (2007). The New Meaning of Educational Change. Teachers College Press. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan. MIT Media Lab. (2021). Learning Innovation Reports. Cambridge, MA: Massachusetts Institute of Technology. Harvard Graduate School of Education. (2022). Pedagogical Innovations in Higher Education. Harvard University Press. University of Oxford. (2020). Higher Education Teaching and Learning Research Papers. Oxford University. Cambridge Assessment. (2019). Assessment for Learning in Higher Education. Cambridge University Press. Seung, H., & Jang, Y. (2019). Gamification in Engineering Education: A Case Study at KAIST. Journal of Educational Technology. Seoul National University. (2020). Virtual and Augmented Reality in Higher Education: Pilot Studies and Implementation. Seoul: SNU Press. Yilmaz, R. (2021). Innovation in Turkish Higher Education: A Review of Modular Curriculum Design. Ankara University Journal of Educational Sciences. Gazi Üniversitesi Eğitim Fakültesi. (2020). Eğitimde Teknoloji Kullanımı ve Öğretmen Eğitimi. Ankara: Gazi Üniversitesi Yayınları. Хазан, В.И. (2021). Цифровые педагогические технологии в высшем образовании. Москва: Изд-во МГУ. L.N. Gumilyov Eurasian National University. (2022).

Harvard, Michigan (AQSH), Cambridge, Oxford, Edinburg (Buyuk Britaniya), Strasbourg Universiteti (Fransiya), Seul Milliy Universiteti (Koreya), Ankara Universiteti, Gazi Universiteti, Hacettepe Universiteti, Ondokuz Mayis Universiteti (Turkiya), Moskva Davlat Pedagogika Instituti (Rossiya), M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti, L.N.Gumilyov nomidagi Evroosiyo Milliy universiteti (Qozog'iston) va Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti (O'zbekiston) kabi muassasalarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar innovatsion yondashuvlar orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan.

Dunyo ta'lim tizimida oliy ta'limda sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, immersiv muhitlar, gamifikatsiya va adaptiv o'qitish platformalaridan foydalanish asosida ta'limning individuallashtirilgan, moslashuvchan va reflektiv modellari ustida izlanishlar olib borilmoqda. Ular talabalarning o'zlashtirish darajasi, muloqot kompetensiyalari, tanqidiy fikrlash va jamoaviy hamkorlikdagi faolligini oshirishga qaratilgan. (AQSH); ta'lim sifati indikatorlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilib, Shuxart-Deming sifatsizlikni bartaraf etish sikli hamda Kaydzanning uzluksiz takomillashtirish tamoyillari asosida oliy ta'lim jarayonlarida sifat menejmentining pedagogik modellarini shakllantirishga doir tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu yondashuvlar ta'lim natijalarini doimiy monitoring qilish, sifat ko'rsatkichlarini o'lchash va yangilab borish masalalari o'rganilgan. (Buyuk Britaniya); innovatsion ta'lim muhitini yaratish, masofaviy ta'lim modellarini integratsiyalash, talabalarning shaxsiy ta'lim trayektoriyalarini aniqlash va tahlil qilish bo'yicha ilg'or tajribalar jamlangan. Bu ilmiy maktablar interaktiv raqamli platformalar, AI-mentor tizimlari va raqamli refleksiya vositalaridan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish metodikasi ishlab chiqilgan. (Janubiy Koreya); pedagogik innovatsiyalarni o'qituvchining kasbiy kompetensiyalari bilan integratsiyalashga qaratilgan bo'lib, zamonaviy metodlar – problemani hal qilishga asoslangan o'qitish, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, STEAM integratsiyasi asosida talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan (Turkiya), xalqaro tajriba almashinuv dasturlari doirasida ilg'or tajribalarni milliy kontekstga moslashtirish, O'zbekiston ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning psixopedagogik asoslarini ishlab chiqish, sifat monitoringi tizimini yaratish, modul ta'lim, raqamli texnologiyalar va individual baholash tizimlari orqali ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo bo'yicha pedagogik innovatsiyalarni joriy etish ta'lim sifatini yaxshilashda tizimli yondashuv, doimiy monitoring, sifat menejmenti, interaktiv raqamli infratuzilma va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga asoslanadi. Shuning uchun, bu sohalarning nazariy va metodologik asoslarini chuqur o'rganish, milliy sharoitga mos keladigan modellarni ishlab chiqish va amaliyotda sinovdan o'tkazish oliy ta'lim tizimida sifatni oshirish uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.³ O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsion pedagogik yondashuvlar, zamonaviy ta'lim strategiyalari va raqamli

³ Xakimova, M. (2020). Pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni. – Toshkent: TDPU. Begimqulov, U. (2018). Innovatsion ta'lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O'zbekiston Milliy

texnologiyalarni birlashtirish, ta'limni takomillashtirishda konstruktiv yondashuvni qo'llash, shuningdek, ta'lim jarayonini individuallashtirish va kompetensiyaviy yondashuvlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar orqali talabalarning o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlari va zamonaviy talablar asosida bilim olishlari uchun qulay sharoitlar yaratish maqsad qilinmoqda. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish, shuningdek, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda ta'limni tashkil etish, ularning kompetensiyalarini oshirish bo'yicha M.Xakimova, D.Ximmataliev, U.Begimqulov, U.Inoyatov, Ya.Ismadiyarov, R.Axlidinov, Sh.Qurbonov, E.Seyitxalilov, Q.Shodmonov, S.Turg'unov, A.Xo'jaev, M.Nig'matov, V.Sa'diev, R.Djuraev, M.Yo'ldoshev va boshqa olimlar tomonidan ilmiy-nazariy va konseptual asoslari yoritib berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining tadqiqotchi va olimlari⁴ jumladan A.Krouglov, E.Troitskiy, S.Yun, V.Vesnin, O.Vixanskiy, A.Gaponenko, L.Zaytsev, T.Zub, I.Mazur, B.Milner, A.Pankruxin, S.Popov, A.Porshneva, A.Prigojiy, N.Salomatina, M.Sokolova, R.Fathutdinov va M.Shifrin, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati, pedagogik innovatsiyalar va ularning oliy ta'lim tizimida qo'llanilishi bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni tadqiq qilishgan.

Jahon olimlari⁵ C.Hmelo Silve, S.Isotani, V.Aleven, R.S.Baker, X.Huang, S.Benna, P.Royster, J.Gross va C.Hochbe tomonidan ta'lim sifatiga innovatsion yondashuvlar, oliy ta'limda sifat menejmenti va indikatorlari, ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning metodologik asoslari hamda oliy ta'lim sifatini baholashning zamonaviy mexanizmlari masalalari chuqur o'rganilgan. Bu tadqiqotlar orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilashga qaratilgan yangi yondashuvlar ishlab chiqish maqsad qilinmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Zamonaviy pedagogika masalalari va uni o'qitish uslubiyati" nomli tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

universiteti. Ximmataliev, D. (2016). Zamonaviy didaktika asoslari. – Toshkent: Ilm ziyo. Ismadiyarov, Y. (2019). Faol o'qitish metodlari va didaktik loyihalash. – Toshkent: Fan va texnologiya. Inoyatov, U. (2017). Ta'limda menejment: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Yangi asr avlodi. Djuraev, R. (2021). Kreativ fikrlashni rivojlantirish pedagogik shart-sharoitlari. – Monografiya. Andijon. Yo'ldoshev, M. (2022). Ta'limda zamonaviy pedagogik tendensiyalar: nazariy va amaliy jihatlari. – Toshkent: Fan.

⁴ Виханский, О.С. (2022). Менеджмент: Учебник. – Москва: Эксмо. Гапоненко, А.Л. (2020). Инновационный менеджмент. – Москва: Юрайт. Мазур, И.А., Зайцев, Л.С., Зуб, Т.А. (2021). Управление проектами. – Москва: Омега-Л. Милнер, Б.З. (2022). Теория организации. – Москва: ИНФРА-М. Панкрахин, А.П. (2019). Маркетинг образовательных услуг. – СПб: Питер. Попов, С.Г., Поршнева, А.Г. (2020). Экономика и управление в образовании. – Екатеринбург: УрФУ

⁵ Sviridova, E., Yastrebova, E., Bakirova, G., & Rebrina, F. (2023). Immersive technologies as an innovative tool to increase academic success and motivation in higher education. *Frontiers in Education*. Marienko, M., Nosenko, Y., & Shyshkina, M. (2020). Personalization of learning using adaptive technologies and augmented reality. *Owoc*, M. L., Sawicka, A., & Weichbroth, P. (2021).

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish maqsadida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishning nazariy jihatlarini o'rganish va tahlil etish;

mavjud xalqaro va milliy tajribalarni tahlil qilish orqali ta'lim sifatini baholash mezonlari va indikatorlarini aniqlash

oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish modelini yaratish;

oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalardan samarali foydalanish orqali ta'lim jarayonining sifatini oshirishga qaratilgan amaliy-uslubiy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish;

oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish jarayonida pedagogik-psixologik omillarni, tashkiliy-pedagogik mexanizmlarni hamda sifat menejmentini samarali tashkil etish va amalga oshirish bosqichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish jarayoni tanlab olindi. Tajriba-sinov ishlari Guliston davlat pedagogika universiteti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali hamda Alfraganus universitetining boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida tashkil etilib, unda jami 349 nafar talaba-respondenlar ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirishning ilmiy-pedagogik asoslarini takomillashtirishning ustuvor tamoyillari, samarali usullari, mazmuni, shakl va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (qiyosiy-taqqoslash, modellashtirish, tahliliy-sintetik), diagnostik (so'rovlar, test, kuzatish, suhbat), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) usullar majmuidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'limda pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirishga doir Shuxart-Deming sikli va Kaydzan yondashuvini uyg'unlashtirgan kompleks nazariy yondashuvlar tizimlashtirilgan, hamda nazariy asoslar Kembrij, MIT (Massachusetts Institute of Technology), KAIST (Korea Advanced Institute of Science and Technology), Tokiy universitetlari amaliyoti asosida takomillashtirilgan;

ta'lim sifatini baholovchi indikatorlar va mezonlarning innovatsion faoliyatga mos keluvchi yangi ko'rsatkichlari (kreativlik, transformatsion tafakkur, loyihaviy refleksiya, texnologik moslashuvchanlik) ni pedagogik-psixologik (co-working faoliyat, mustaqil o'rganish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, talabalarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish) jarayonlarida empatik munosabatlarni muammoli o'qitish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini real ta'limiy sharoitda qo'llash asosida aniqlangan;

oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish modelini universallik va normativlik tamoyillarini maqsaddan natijaga yo'naltirish hamda metodologik, tashkiliy, didaktik va natijaviy komponentlarning izchilligini modifikatsiyalash asosida optimallashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalarida Shuxart-Deming sikli (Plan–Do–Check–Act, ya'ni rejalashtirish – bajarish – tekshirish – takomillashtirish), Mentimeter, Kahoot, Jamboard va Padlet kabi raqamli interaktiv platformalar hamda sun'iy intellektga asoslangan monitoring vositalarini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, immersiv ishtirok, hissiy-refleksiv rivojlanish va individual o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan uyg'unlashtirish orqali ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish jarayonida talabalarning refleksiv va empatik munosabatlari, motivatsion hamda ijodiy imkoniyatlari, modul asosida tashkil etilgan ta'lim dizayni, interaktiv platformalardan foydalanish va o'qituvchi–talaba hamkorligi mexanizmlari, shuningdek, sifat menejmentining tayyorlash, amalga oshirish, nazorat va qayta rejalashtirish bosqichlari pedagogik tajriba-sinovlar, kuzatuvlar, so'rovnomalar hamda statistik tahlil natijalari asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga tayangan holda loyihaviy faoliyat, hamkorlikka asoslangan va muammoli o'qitish metodikalari tizimi yanada takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar orqali ta'lim sifatini oshirish mezonlari aniqlanib, uning pedagogik shart-sharoitlari hamda metodik, diagnostik va baholash komponentlari tizimli ravishda belgilab berilgan;

oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirishga mo'ljallangan metodik tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan;

“pedagogik innovatsiya”, “ta'lim sifati”, “sifat menejmenti” atamasiga mualliflik ta'rifi berilgan hamda oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan o'quv-uslubiy materiallar mazmunini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoni o'rganishda falsafiy, metodologik, metodik, pedagogik va psixologik yondashuvlar bilan bir qatorda bolalar nutqini rivojlantirishga oid respublikamiz va xorijiy olimlarning tadqiqotlari natijalari asosida, tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos keladigan, bir-birini to'ldiruvchi metodlar qo'llanilib, tahlil va tadqiqot tavsifi miqdoriy va sifat jihatidan ta'minlangan, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi, olingan natijalarning matematik-statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanishi, shuningdek, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi va natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan model va texnologiyalar orqali oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentlik va raqobatbardoshligini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning muhim pedagogik omillari bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish, talabalarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlash, o'qituvchilar uchun innovatsion pedagogik usullarni qo'llash va ularning professional

rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan treninglar va seminarlar tashkil etish imkoniyatlarini yaratish, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish va tajriba almashishni rag'batlantirish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari rahbariyatiga ta'lim jarayonini boshqarishda ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishda yordam berish, innovatsion yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan strategiyalar orqali esa ta'lim tizimini takomillashtirish imkoniyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirishning ilmiy-pedagogik asoslarini takomillashtirish bo'yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

oliy ta'limda pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirishga doir Shuxart-Deming sikli va Kaydzan yondashuvini uyg'unlashtirgan kompleks nazariy yondashuvlar tizimlashtirilgan, hamda nazariy asoslar Kembrij, MIT (Massachusetts Institute of Technology), KAIST (Korea Advanced Institute of Science and Technology), Tokiyo universitetlari amaliyoti asosida takomillashtirishga oid xulosalardan "Бастауыш сыныптарда "Тәрбие" пәнин оқыту методикасы" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-son buyrug'i bilan taqdim etilgan №232-415-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali talabalar bilim va ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlash imkoniyatlari kengaygan;

ta'lim sifatini baholovchi indikatorlar va mezonlarning innovatsion faoliyatga mos keluvchi yangi ko'rsatkichlari (kreativlik, transformatsion tafakkur, loyihaviy refleksiya, texnologik moslashuvchanlik) ni pedagogik-psixologik (co-working faoliyat, mustaqil o'rganish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, talabalarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish) jarayonlarida empatik munosabatlarni muammoli o'qitish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini real ta'limiy sharoitda qo'llashga oid xulosalardan "Baholash nazariyasi asoslari" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-son buyrug'i bilan taqdim etilgan №512006-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qilgan;

oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish modelini universallik va normativlik tamoyillarini maqsaddan natijaga yo'naltirish hamda metodologik, tashkiliy, didaktik va natijaviy komponentlarning izchilligini modifikatsiyalash asosida optimallashtirilgan ilmiy-amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170929789-raqamli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogi va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" nomli amaliy loyihasni bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 17-dekabrda 04/11-29900-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning professional kompetensiyalari rivojlanadi va ta'lim jarayoni yanada sifatli va samarali bo'ladi. Bunday yondashuvlar orqali ta'lim muassasalari o'z faoliyatlarini yanada

samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lishadi, bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilgan.

oliy ta'lim muassasalarida Shuxart-Deming sikli (Plan–Do–Check–Act, ya'ni rejalashtirish – bajarish – tekshirish – takomillashtirish), Mentimeter, Kahoot, Jamboard va Padlet kabi raqamli interaktiv platformalar hamda sun'iy intellektga asoslangan monitoring vositalarini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, immersiv ishtirok, hissiy-refleksiv rivojlanish va individual o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan uyg'unlashtirish asosida ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan FZ-2020010829-raqamli "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari" nomli amaliy loyihasni bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 17-dekabrda 04/11-29899-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirishda bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalarni keng o'qituvchilar ommasiga yetkazishga xizmat qilgan.

oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish jarayonida talabalarning refleksiv va empatik munosabatlari, motivatsion hamda ijodiy imkoniyatlari, modul asosida tashkil etilgan ta'lim dizayni, interaktiv platformalardan foydalanish va o'qituvchi–talaba hamkorligi mexanizmlari, shuningdek, sifat menejmentining tayyorlash, amalga oshirish, nazorat va qayta rejalashtirish bosqichlari pedagogik tajriba-sinovlar, kuzatuvlar, so'rovnomalar hamda statistik tahlil natijalari asosida aniqlangan tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-461-raqamli "Umumta'lim muassasalarida moliyaviy savodxonlik asoslari va qimmatli qog'ozlar bozorini o'rganish bo'yicha multimedia texnologiyalariga asoslangan o'quv kursi platformasini yaratish" nomli amaliy loyihasni bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 17-dekabrda 04/11-29898-son ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirishda bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalarni keng o'qituvchilar ommasiga yetkazishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, shu jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 2 ta darslik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 9 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 230 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga

bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqot mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarining joriy etilgani, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Oliy ta‘lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta‘lim sifatini oshirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, ta‘lim sifati nazariyasining o‘rganilish tarixi, oliy ta‘lim muassasalarida Shuxart-Deming sikli va Kaydzam yondashuvlar asosida ta‘lim sifatini oshirish zarurati, pedagogik innovatsiyalar asosida ta‘lim sifatini baholovchi mezonlar va indikatorlari tahlilga tortilgan.

Oliy ta‘lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta‘lim sifatini oshirishning nazariy asoslari zamonaviy pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu boradagi ilmiy qarashlar ta‘limni modernizatsiyalash, o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash va ta‘lim sifatini boshqarish konsepsiyalari bilan uzviy bog‘liqdir. Pedagogik innovatsiyalar deganda mavjud an‘anaviy o‘qitish tizimini yangilovchi, ta‘lim samaradorligini oshiruvchi, talabning intellektual, ijodiy, kommunikativ va reflektiv salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangicha pedagogik yondashuvlar tushuniladi. Bu yondashuvlarning nazariy negizida konstruktivizm, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, sotsial-kognitiv nazariya, faoliyatga asoslangan ta‘lim va raqamli pedagogika kontsepsiyalari yotadi. Konstruktivizm nazariyasi ta‘lim oluvchining bilimni mustaqil kashf etishi, tajriba va faoliyat orqali bilimlarni o‘zlashtirishi tamoyiliga asoslanadi, bunda o‘qituvchi ko‘proq fasilitator rolini bajaradi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv esa ta‘lim mazmuni va natijalarini nafaqat bilim bilan, balki ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui bilan belgilaydi. Zamonaviy nazariyalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion ta‘lim texnologiyalari – gamifikatsiya, virtual olam, sun‘iy intellekt, raqamli platformalar, loyihaviy va muammoli o‘qitish, fleksi ta‘lim modellarining pedagogik mohiyati va mexanizmlari faqatgina texnik vositalar orqali emas, balki chuqur didaktik tamoyillar asosida shakllanadi. Ularning nazariy asosi sifatida zamonaviy metodologik yondashuvlar – tizimli-aktivlik yondashuvi, layoqatli shaxsni shakllantirish yondashuvi, integrativ hamda reflektiv yondashuvlar tahlil qilinadi.

Fleksi ta‘lim modeli shaxsga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va interaktiv o‘quv muhitni ta‘minlab, talabalar nazariy va amaliy ehtiyojlariga javob beradigan hybrid (masofaviy + an‘anaviy) ta‘lim shaklidir. Pedagogik mohiyati – u mustaqil o‘qish (self-blend) bilan guruh ichidagi hamkorlikni uyg‘unlashtirib, nafaqat bilim, balki metakognitiv va ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalarni shakllantiradi. Ushbu modelning mexanizmlarida Universal Design for Learning (UDL) tamoyillari asosiy o‘rin tutadi: ta‘lim mazmuni turli formatlarda (ko‘rish, eshitish, interaktiv) taqdim etiladi, ifodalash shakllari variantli bo‘lib, motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash uchun stimullar moslashtiriladi.

Fleksi ta'lim modeli — bu moslashuvchan ta'lim yondashuvi bo'lib, o'quv jarayonini ta'lim oluvchi yoki talabaning ehtiyoji, qiziqishi va vaqt imkoniyatlariga moslashtirishni anglatadi. Unda dars jadvali qat'iy bo'lmaydi, ta'lim oluvchi o'z tempida o'qiydi, onlayn, oflayn yoki aralash shaklni tanlashi mumkin, o'quv yo'li individuallashtiriladi va o'qituvchi asosan yo'l-yo'riq beruvchi mentor rolini bajaradi. Bu model kasbiy ta'lim, oliy ta'lim va onlayn kurslarda keng qo'llanadi hamda ta'lim oluvchilarning turli sharoitlariga moslashish, samaradorlikni oshirish va tajriba olishga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlash uchun zarur.

Ta'lim sifati nazariyasining o'rganilish tarixi o'zining ildizlarini pedagogika fanining shakllanishi va taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u avvalo ta'lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlariga oid nazariy qarashlar negizida rivojlanib kelgan. Ta'lim sifati tushunchasi dastlab XIX asr oxiri – XX asr boshlarida G.Kershensteiner, J.Dewey, A.Disterveg, K.D.Ushinskiy kabi klassik pedagoglar tomonidan bevosita shaxsga yo'naltirilgan ta'lim g'oyasi bilan bog'liq tarzda ilmiy muomalaga kiritilgan. Ayniqsa, John Deweyning "Experience and Education" (1938) asarida ta'limni shaxsiy tajriba asosida tashkil qilish orqali sifatini ta'minlash g'oyasi ilgari surilgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ta'lim sifati tushunchasiga tizimli yondashuv shakllanib, bu borada B.Blumning "Taxonomy of Educational Objectives" (1956) modeli asosida kognitiv, affektiv va psixomotor sohalaridagi o'zlashtirish darajalarini aniqlash imkoniyati yaratildi.

Keyinchalik, ta'lim sifati masalalari nafaqat ta'lim mazmuni va metodikasi, balki boshqaruv, baholash, infratuzilma va pedagogik innovatsiyalar bilan chambarchas bog'lab tahlil qilina boshlandi. 1960–70-yillarda Xalqaro ta'limni rejalashtirish tashkiloti (UNESCO) hamda OECD doirasida o'tkazilgan xalqaro baholash loyihalari (PISA, TIMSS) orqali ta'lim sifati global miqyosda o'lchovli va taqqoslanadigan indikatorlar asosida baholanishi yo'lga qo'yildi. Shuxart-Deming (PDCA) sikli asosida sifat menejmenti tizimlarining ta'lim sohasiga tadbiq qilinishi natijasida uzluksiz rivojlanish, natijalarga yo'naltirilganlik, qayta aloqa va monitoring mexanizmlari sifat tushunchasining markaziga aylandi. Ta'lim sifati 1990-yillardan boshlab Rossiya, Qozog'iston va boshqa MDH davlatlarida Bolonya jarayoni doirasida ta'lim sifatini kompetensiyaviy yondashuv asosida belgilashga e'tibor kuchaydi.

O'zbekistonda esa istiqloq yillarida ta'lim sifatini oshirishga doir nazariy konsepsiyalar M.Xakimova, U.Begimqulov, D.Himmataliev, S.Turg'unov, Q.Shodmonov, M.Yo'ldoshev, R.Djuraev, E.Seyitxalilov kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ularning ilmiy izlanishlari uzluksiz ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, milliy model, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, ta'lim natijalarini baholash va ta'lim sifatini tizimli boshqarish konsepsiyalariga tayangan. Jumladan, U.Inoyatov tomonidan ta'limda strategik islohotlar, M.Nig'matov tomonidan ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, A.Xo'jaev tomonidan sifat menejmenti konsepsiyalari chuqur yoritilgan.

Ta'lim sifati nazariyasining bugungi rivojlanishida pedagogik innovatsiyalar, raqamli muhit, sun'iy intellekt texnologiyalari, global reytinglar, xalqaro akkreditatsiya tizimlari bilan integratsiyalashuv kuchaymoqda. Bu esa,

ta'lim sifati tushunchasini multidisiplinar yondashuvda qayta ko'rib chiqishni, faqat o'quv dasturi bilan emas, balki talabalar faolligi, o'qituvchining kompetensiyasi, infratuzilma, boshqaruv va baholash tizimlari bilan o'zaro bog'liqlikda talqin qilishni taqozo etmoqda. Shu ma'noda, ta'lim sifati nazariyasi tarixan doimiy yangilanishda bo'lgan va hozirgi kunda esa barqaror rivojlanish, raqamli transformatsiya, hamda shaxsga yo'naltirilgan kompetensiyaviy yondashuvlar bilan mustahkamlanmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy yondashuvlar asosida ta'lim sifatini oshirish zarurati tobora dolzarb tus olmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya, talaba markazli yondashuv, kompetensiyaviy model hamda ta'lim sifati bo'yicha xalqaro reytinglar ta'siri natijasida ta'lim jarayonida uzluksiz sifat menejmenti tamoyillarini joriy etish bugungi kunning asosiy talabiga aylanmoqda. Shu jihatdan Shuxart-Deming sifatsizlikni bartaraf etish sikli (PDCA – Plan, Do, Check, Act) va Kaydzan yondashuvi (uzluksiz takomillashtirish g'oyasi) oliy ta'limda sifatni tizimli ravishda boshqarishning metodologik asosini tashkil etadi.

Shuxart-Deming sikli orqali ta'lim tizimida sifatni rejalashtirish, amaliyotga joriy etish, monitoring va natijalarni tahlil qilish, takomillashtirish choralari ko'rish bosqichlari orqali boshqarish mexanizmi vujudga keladi. Bu sikl asosida ta'lim muassasasi o'z faoliyatining barcha yo'nalishlarida – o'quv rejalari, o'quv jarayonini tashkil etish, baholash tizimi, kadrlar malakasi, moddiy-texnika bazasi – doimiy yangilanish va samaradorlikni oshirishni ko'zda tutadi. Xususan, "Plan" bosqichida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha aniq strategik reja va indikatorlar ishlab chiqiladi, "Do" bosqichida ularni joriy etish mexanizmlari ishga tushiriladi, "Check" bosqichida baholash va monitoring orqali mavjud holat tahlil qilinadi, "Act" bosqichida esa aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilib, yangi takliflar asosida diagnostik sikl yangilanadi.

Kaydzan yondashuvi esa ushbu siklni harakatga keltiruvchi falsafiy g'oya sifatida xizmat qiladi. Kaydzan tamoyiliga ko'ra, har bir o'qituvchi, har bir xodim va har bir talaba sifatga ta'sir etuvchi subyekt sifatida qaraladi. Ularning doimiy islohotlarda ishtirok etishi, takliflar berishi, o'z faoliyatini baholab borishi va mas'uliyatni his etishi ta'lim muassasasi sifatini uzluksiz oshirishni ta'minlaydi. Kaydzan g'oyasi asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti ochiqlik, doimiy yangilanish, innovatsiyalarni joriy qilishga tayyorlik, sifatni shaffoflikda aniqlash madaniyatini shakllantirishni talab qiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu yondashuvlar Buyuk Britaniyaning Cambridge va Oxford universitetlarida, Yaponiya va Janubiy Koreya oliy ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli joriy qilingan bo'lib, ta'lim natijalarining barqarorligi, talabalar qamrovi, xalqaro akkreditatsiya ko'rsatkichlari, ilmiy tadqiqot faolligi sezilarli darajada oshgan. Shuxart-Deming sikli asosida har bir fakultet, kafedra va o'qituvchining sifatga qo'shgan hissasi alohida baholanadi va bu mezonlar asosida resurslar taqsimlanadi, bu esa ichki motivatsiya va daxldorlik hissini oshiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish uchun Shuxart-Deming sikli va Kaydzan yondashuvini strategik va metodik asos sifatida qo'llash – zamonaviy boshqaruv talablariga javob beruvchi, shaxsga yo'naltirilgan, raqamli,

samarali va innovatsion ta'lim tizimini shakllantirish yo'lidagi eng asosiy vositadir. Bu esa, ta'lim tizimining global raqobatbardoshligini ta'minlash va barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, innovatsion ta'lim muhiti yaratish, sifatga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ular ustidan doimiy monitoring olib borish, resurslar va infratuzilmani raqamlashtirish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish kabi jihatlar oliy ta'limda zamonaviy menejment yondashuvlarini shakllantiradi. Shuxart-Deming sikli orqali joriy etilayotgan bu usullar ta'lim jarayonini standartlashtirish emas, balki uni shaxsiylashtirish, individual ehtiyojlarga moslashtirish va refleksiv (o'z-o'zini tahlil qilishga asoslangan) yondashuvlar orqali talabaning shaxsiy intellektual salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

“Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish amaliyoti” nomli ikkinchi bob jahon tajribasida oliy ta'lim tizimidagi pedagogik innovatsiyalar tahlili, pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda o'qituvchilarning roli, talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirish yo'llari masalalariga bag'ishlangan.

Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish amaliyoti ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi strategik yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Bu jarayon o'quv-tarbiya ishlarini takomillashtirish, ta'lim oluvchilarning shaxsiy rivojini ta'minlash, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash salohiyatini kuchaytirish hamda mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir. Pedagogik innovatsiyalarni joriy etish amaliyoti bir nechta asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda: birinchidan, o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyasi, xususan, raqamli ta'lim platformalari, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellektga asoslangan adaptiv o'qitish tizimlari orqali ta'limning individual va moslashuvchan shakllari tatbiq etilmoqda. Ikkinchidan, interaktiv usullardan, muammoli o'qitish, loyiha asosida ta'lim, CASE-STUDY, peer learning (talaba-talabaga), STEAM yondashuvlari asosida talabalarning bilimga nisbatan faol munosabatini shakllantirish tajribalari kengaymoqda. Uchinchidan, o'quv jarayonida monitoring va baholash indikatorlarini ilg'or tizimlar asosida ishlab chiqish orqali sifatni doimiy ravishda aniqlash, aniqlangan muammolarga mos strategik choralarni qo'llash amaliyoti shakllanmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish amaliyoti ta'lim sifatini oshirishning muhim omili bo'lib, u nafaqat metodik yangiliklarni qo'llash, balki ta'lim jarayonini boshqarish, tashkiliy tuzilma va madaniyatini ham zamon talablari asosida yangilashni talab etadi. Pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda o'qituvchilarning roli ta'lim sifatini oshirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim paradigmasi o'qituvchining faqat bilim beruvchi emas, balki innovator, fasilitator, motivator va tashabbuskor sifatidagi faoliyatini taqozo etmoqda. O'qituvchi pedagogik innovatsiyalar tashabbuskori sifatida yangi texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etadi, ta'limiy loyihalarni ishlab chiqadi va ularni amaliyotda samarali qo'llash uchun metodik yondashuvlarni ishlab chiqadi. Shu boisdan, pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda o'qituvchining

zamonaviy metodika va texnologiyalarni egallaganligi, ularni mos ravishda tatbiq eta olish kompetensiyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik innovatsiyalarni samarali joriy etish uchun o'qituvchining faqatgina an'anaviy bilim yetkazuvchi emas, balki ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantiruvchi, uning ijodiy salohiyatini namoyon etuvchi hamda ta'lim sifatini doimiy monitoring qiluvchi mutaxassis bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, u raqamli savodxonlik, axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi, sun'iy intellekt, "learning analytics", raqamli texnologiyalardan o'rinli foydalana olishi lozim. Shu nuqtai nazardan professor M.Xakimova fikricha, "O'qituvchi innovatsiyalar tashuvchisi bo'lishi uchun u o'zining professional didi, texnologik tafakkuri, didaktik refleksiyasi bilan yangi ta'lim modelining asosiy g'oyalarini tushunmog'i va ularga amaliy yechim topmog'i kerak". Bu fikr o'qituvchi faoliyatining faqatgina dars berish bilan cheklanmasligini, balki u o'zini rivojlantiruvchi va yangilikni o'rganuvchi shaxs sifatida namoyon bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

Rossiyalik taniqli metodist olim T.I.Shamova esa o'qituvchining o'z ustida ishlashi, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi va talaba bilan samarali hamkorlik qilishi ta'limda innovatsion muhitni shakllantirishning poydevori deb hisoblaydi. U o'z tadqiqotlarida ta'lim muassasasining innovatsion salohiyati, avvalo, unda faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kreativ fikrlashi va ochiq innovatsiyon muhit bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

AQSHlik olim J.Hattie (John Hattie) o'zining "Visible Learning" nomli fundamental tadqiqotida ham o'qituvchining shaxsiy yondashuvi, talabalarning o'zlashtirishini kuzatish va shu asosda ta'lim usullarini qayta ko'rib chiqish orqali ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi eng muhim omil sifatida baholagan. Unga ko'ra, "eng kuchli innovatsiya – bu o'qituvchining talabani tushunishi va uning ehtiyojlariga mos strategiyani tanlay olishidir".

Turkiyalik olim Y.Korkmaz va M. Karakus esa o'z tadqiqotlarida o'qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni qabul qilishi va joriy etishdagi tayyorgarlik darajasi ularning kasbiy malakasi, rahbariyatning qo'llab-quvvatlashi, institutsional muhit va ta'lim siyosati bilan chambarchas bog'liq ekanini aniqlagan ("Teachers' Attitudes towards Educational Innovation and Change", 2017).

O'zbek olimlari orasida D.Ximmataliev, R.Djuraev, Q.Shodmonov, A.Xo'jaev, M.Yo'ldoshev, E.Seyitxalilov, S.Turg'unovlar tomonidan olib borilgan izlanishlarda ta'limda yangicha metodik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda o'qituvchining roli, ayniqsa, ta'lim jarayonining natijadorligiga ta'sir etuvchi mezon sifatida keng yoritilgan. Jumladan, Q.Shodmonov fikricha, "Yuqori malakali o'qituvchi har qanday innovatsion yondashuvni o'z sharoitiga moslab, milliy an'ana va zamonaviy texnologiyalar uyg'unligida ta'limiy tizim yaratishga qodirdir".

Pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda o'qituvchining roli ko'p omilli va murakkab jarayonni tashkil qiladi. U zamonaviy texnologiyalarning tashuvchisi, ta'lim sifati kafolatchisi, talabaning individual rivoji va kreativ salohiyatini ro'yobga chiqaruvchi bosh figuradir. Pedagogik innovatsiyalar samarasi, avvalo, o'qituvchining o'ziga xos shaxsiy va kasbiy pozitsiyasiga, doimiy izlanishga

intiluvchanligiga, o'z ustida ishlay olish layoqatiga, ya'ni doimiy refleksiv va adaptiv pedagogik faoliyatiga bog'liq. Oliy ta'lim tizimida innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning kaliti – bu zamonaviy pedagog obrazidir.

Talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirish yo'llari zamonaviy oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh, tashabbuskor, kreativ va tahliliy fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda talabalar bilim egallovchi passiv subyekt emas, balki yangi g'oya, loyiha va tashabbuslarni ilgari suruvchi faol ishtirokchi sifatida maydonga chiqishi zarur. Talabalarning innovatsion salohiyatini shakllantirish, ilg'or fikr yuritish, muammolarni aniqlab, ularni yechish mexanizmlarini ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Ilmiy-amaliy manbalar tahliliga ko'ra, talabalarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat: birinchidan, ta'lim jarayoniga loyiha asosidagi o'qitish, muammoli vaziyatlardan foydalanish, dizayn-o'ylash (design thinking) metodikalarini joriy etish; ikkinchidan, startaplar, inkubatsiya markazlari va innovatsion laboratoriyalar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali talabalarning tadqiqot va amaliy faoliyatga qiziqishini oshirish; uchinchidan, multidisiplinar yondashuvni tashkil etish orqali fanlararo tafakkurni rivojlantirish; to'rtinchidan, raqamli vositalar, masalan, sun'iy intellekt, simulyatsiya va raqamli texnologiyalar asosida ijodiy loyihalar tayyorlash sharoitlarini yaratish.

O'zbekiston olimlaridan M. Yo'ldoshev, A. Xo'jaev, R. Djuraev, Sh. Qurbonovlar o'z tadqiqotlarida ta'limda innovatsion salohiyatni shakllantirishda talabalarni erkin fikrlovchi, muammoni tahlil qiluvchi va amaliy yechimlar topishga qodir shaxs sifatida rivojlantirish konsepsiyasini ilgari surganlar. M.Xakimova esa "talaba – bu zamonaviy g'oya muallifi, innovatsiya yaratuvchisi va ta'lim natijasining bevosita ishtirokchisidir" degan fikrni ilgari suradi.

Xorijiy olimlardan J.Hattie (AQSH), T.Fullan (Kanada), E.Doll (Germaniya), M.Prenski (AQSH), K.Robinson (Buyuk Britaniya)larning izlanishlarida esa talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan o'qitish modellari – "Flipped classroom", "Project-based learning", "Gamification", "Peer-learning" kabi texnologiyalar asosida innovatsion tafakkurni shakllantirish konseptual asoslari yoritilgan.

Talabalar innovatsion faoliyatining rivojlanishi bevosita oliy ta'limda o'quv muhitining erkin, ijodiy, hamkorlikka asoslangan, texnologik jihatdan boyitilgan bo'lishiga, o'qituvchining ilg'or metodlardan foydalana olishiga va talabaga mustaqil fikr yuritish, tanqidiy tahlil qilish, natija olish uchun rag'bat yaratishga bog'liq. Bu esa oliy ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Tadqiqotning **“Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari”** deb nomlangan uchinchi bobida oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish mazmuni, tamoyillari, bosqichlari, oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish modeli, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy usullari tadqiq etilgan.

Zamonaviy jamiyatda oliy ta'lim sifatini oshirish masalasi strategik ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, bu jarayonda pedagogik innovatsiyalarni samarali joriy etish ta'lim tizimini modernizatsiyalash va barqaror rivojlantirishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsion yondashuvlar asosida shakllangan ta'lim modeli ta'limning mazmuni, shakli, uslubi, vositalari va natijalarini tubdan yangilashga xizmat qiladi. Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan mexanizmlar tizimligi, uzluksizligi va shaxsga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari ta'lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirishga qaratilgan kompleks jarayonlarni o'z ichiga oladi. Quyidagi asosiy mexanizmlar eng muhimlari hisoblanadi:

1. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish – muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, STEAM yondashuvi, modul ta'limi, kompetensiyaga yo'naltirilgan metodlar orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirish.

2. Raqamli ta'lim vositalaridan keng foydalanish – LMS tizimlari (Moodle, Google Classroom), interaktiv platformalar, multimedia resurslari, sun'iy intellektga asoslangan o'qitish va baholash vositalarini qo'llash.

3. O'qituvchilarning innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish – doimiy malaka oshirish, treninglar, seminarlar, tajriba almashish, metodik qo'llanmalar bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish.

4. Baholash tizimini modernizatsiya qilish – kompetensiyaga asoslangan baholash, formatif (jarayonli) baholash, elektron baholash, portfolioga asoslangan monitoring.

5. Talabalarni faollashtirish va ularning mustaqil ta'limini kuchaytirish – interaktiv metodlar, jamoaviy ishlar, loyiha va tadqiqot topshiriqlari, ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan mashg'ulotlar.

6. O'quv jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tamoyillar asosida tashkil etish – individual o'quv yo'llari, differensial yondashuv, moslashuvchan (fleksiyali) ta'lim modeli.

7. Ta'lim jarayonini ilmiy asosda tahlil qilish va takomillashtirish – monitoring, diagnostika, refleksiya, ta'lim natijalari bo'yicha tahliliy tahlil va takliflar ishlab chiqish.


8. Hamkorlik va ochiq ta'lim muhitini yaratish – ota-ona, mahalla, oliy ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarini va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish bugungi globallashtirish, raqamlashtirish va inson kapitaliga bo'lgan talab ortib borayotgan sharoitda strategik zaruratga aylanib bormoqda. Ta'lim sifatini oshirishda pedagogik innovatsiyalarning asosiy tamoyillari sifatida shaxsga yo'naltirilganlik, natijadorlik, uzluksizlik, refleksivlik, interaktivlik, muvozanatlilik, tizimlilik va integrallik e'tirof etiladi. Bu tamoyillar talaba va o'qituvchi o'rtasida konstruktiv hamkorlikni vujudga keltiradi, ta'lim oluvchining mustaqil fikrlashini va tanqidiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi. Pedagogik innovatsiyalarni joriy etish jarayoni bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi: birinchi bosqichda zarurat va dolzarblikni

aniqlash, ta'lim muassasasining tashkiliy, texnologik va metodik tayyorgarligini baholash; ikkinchi bosqichda innovatsion texnologiyalarni tanlash, o'quv rejalari va dasturlarni moslashtirish; uchinchi bosqichda innovatsion o'quv faoliyatini amaliyotga tadbiiq etish, talabalarning faol ishtirokini ta'minlash, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va mentorlik tizimini joriy etish; to'rtinchi bosqichda monitoring, baholash, natijadorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish, qayta aloqa va refleksiya asosida takomillashtirish ishlari amalga oshiriladi. Ushbu bosqichlar uzluksiz siklni tashkil etib, oliy ta'limda ta'lim sifatining barqaror oshirilishini kafolatlaydi. Shunday qilib, pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish — bu nafaqat yangi texnologiyalarni qo'llash, balki butun ta'lim tizimini yangicha fikrlash asosida qayta qurish, innovatsion muhit yaratish va zamonaviy ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish orqali zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashtirish jarayonidir.

Mazkur bobda ishlab chiqilgan model **“Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish modeli”** deb nomlangan bo'lib, ushbu model, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifati indikatorlarini izchil takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga samarali tatbiiq etishni nazarda tutuvchi tizimli pedagogik konstruksiyadir. Ushbu modelning asosiy mazmuni o'qitish jarayonini kompetensiyaviy yondashuv, interaktiv texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilganlik va zamonaviy raqamli vositalar asosida qayta tashkil qilishdan iborat bo'lib, u talabaning mustaqil ta'lim olish faolligi, tahliliy tafakkuri, ijodiy salohiyati va refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Model tarkibiga quyidagi asosiy komponentlar kiradi: maqsadli komponent (ta'lim sifati va innovatsion kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan aniq pedagogik maqsadlar), mazmuniy-kommunikativ komponent (yangilangan o'quv rejalari, integratsiyalashgan fanlar, STEAM yondashuvi va ko'p darajali o'quv dasturlari), jarayon komponent (innovatsion metodlar, AKT vositalari, gamifikatsiya, raqamli texnologiyalari, masofaviy va gibridd ta'lim platformalari), baholash va monitoring komponenti (refleksiv va formatif baholash, learning analytics, sifat indikatorlari asosida doimiy tahlil), hamda natijaviy komponent (talabaning yakuniy kompetensiyon portreti, kutilgan natijalar va ta'lim sifat ko'rsatkichlari). Modelning afzalliklari shundan iboratki, u zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirgan holda o'quv jarayonining interaktivligi, moslashuvchanligi va natijadorligini ta'minlaydi, o'qituvchining fasilitatorlik rolini kuchaytiradi, talabani esa ta'lim subyekti sifatida faollashtiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida kreativlik, transformatsion tafakkur, loyihaviy refleksiya va texnologik moslashuvchanlikni empatik, muammoli va shaxsga yo'naltirilgan ta'limga integratsiyalash orqali ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Talabalar co-working faoliyati doirasida kichik guruhlarda muammolarni birgalikda aniqlab, yechim topish orqali hamkorlik, empatiya va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi, bu esa tanqidiy fikrlash va mustaqil o'rganishni rag'batlantiradi.



1-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish modeli

“Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari tahlili” nomli so‘nggi bobida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahlili hamda ularning samaradorlik darajasi o‘z ifodasini topgan. Qo‘yilgan vazifalar tadqiqot mantig‘i va uning asosiy bosqichlarini belgilashga asos bo‘ldi. Tajriba-sinov ishlariga Tadqiqot ishida tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish uchun maydonchalar sifatida Guliston davlat universiteti, M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, Alfraganus universiteti tanlab olindi. Tajriba-sinov ishlariga Guliston davlat universitetidan 93 nafar; M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filialidan 132 nafar; Alfraganus universitetidan 124 nafar, jami: 349 nafar respondent talabalar jalb etildi.

Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari bugungi global o‘zgarishlar sharoitida milliy ta’lim tizimining transformatsiyasida muhim strategik bosqich sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu tajriba-sinov faoliyati doirasida innovatsion o‘qitish metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv va konstruktivistik yondashuvlar asosida o‘quv jarayoni qayta dizaynlab chiqildi. Bu yondashuvlar orqali nafaqat ta’lim oluvchilarning nazariy bilimlari mustahkamlandi, balki ularning amaliy ko‘nikmalari, kreativ tafakkuri, muammolarni hal qilish salohiyati va raqamli savodxonligi ham tizimli ravishda rivojlantirildi. O‘tkazilgan tajriba-sinovlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy dars shakllaridan farqli ravishda, ta’lim oluvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirokini ta’minlovchi innovatsion yondashuvlar – masalan, loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning), teskari sinf (Flipped Classroom), kollaborativ o‘qitish, simulyatsiyalarga asoslangan muhitlar va o‘yinga asoslangan metodlar (gamification) ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini sezilarli darajada oshirganligi statistik tahlillarda berilgan.

Tajriba-sinov ishlarining muhim jihatlaridan biri — bu o‘qituvchilar uchun yangi pedagogik texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish, natijalarni monitoring qilish va o‘z metodik arsenalini boyitish imkoniyatini yaratganidir. O‘qituvchilar o‘z darslarini pedagogik eksperiment asosida qurib, har bir metodik vositaning samaradorligini real natijalar bilan taqqoslab baholadilar. Bu jarayon o‘z navbatida, o‘qituvchining refleksiv yondashuvini kuchaytirib, ularni metodologik yangiliklar yaratishga undadi. Shuningdek, o‘qituvchilarning o‘z faoliyatiga nisbatan tanqidiy munosabati, baholash mezonlarini mustaqil ishlab chiqish va talaba fikrini hisobga olish orqali ta’lim jarayonining o‘zgaruvchan ehtiyojlariga moslashish darajasi ortdi.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari zamonaviy ta’lim konsepsiyasining amaliy ifodasi bo‘lib, ta’lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda, ularni muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishda va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bu tajribalar asosida pedagogik innovatsiyalarni keng qamrovda joriy etish, ularning samaradorligini ilmiy baholash va tizimlashtirish orqali butun ta’lim tizimining sifatini oshirishga erishiladi. Shu sababli, tajriba-sinov faoliyatlarini ilmiy-tadqiqotlar bilan integratsiyalashgan holda olib borish va ularning natijalarini davlat siyosatiga kiritish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifasidir.

Zamonaviy talabani ta'limga nisbatan talablari ham o'zgargan: ular biryoqlama ma'lumot olishdan ko'ra faol ishtirok etishni, amaliyotga yo'naltirilgan topshiriqlarni, tanqidiy baholashga asoslangan muloqotni, raqamli muhitda erkin ishlashni afzal ko'rmoqda. Shu bois pedagogik innovatsiyalarni joriy etish nafaqat o'quv jarayonining zamonaviylik darajasini belgilaydi, balki ta'lim oluvchining qoniqish darajasini, motivatsiyasini, ijtimoiy faolligini oshiradi. Ushbu jarayonning samarasi esa raqobatbardosh, o'z kasbiga sadoqatli, ijtimoiy mas'uliyatga ega bo'lgan mutaxassislarni yetishtirish bilan o'lchanadi. Jahon tajribasi, xususan, Kembrij, MIT (Massachusetts Institute of Technology), KAIST (Korea Advanced Institute of Science and Technology), Tokiyo universitetlari amaliyoti shuni ko'rsatadiki, innovatsion pedagogik tizimlar orqali nafaqat oliy ta'lim darajasini, balki milliy ta'lim sifatini umumiy barqarorlikka olib chiqish mumkin.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun bu o'zgarishlar, avvalo, ta'lim va amaliyot orasidagi tafovutni bartaraf etish, fanlararo yondashuvni kuchaytirish, akademik muhitni erkin va faol fikrlashga yo'naltirish, xalqaro reytinglarda ishtirok etish darajasini oshirish uchun zarur. Bundan tashqari, pedagogik innovatsiyalar orqali o'qituvchilarning metodik erkinligini kengaytirish, kasbiy o'sish motivatsiyasini kuchaytirish va darslarning zamonaviyligi, didaktik yuksakligini ta'minlash mumkin. Shuningdek, innovatsiyalar ijtimoiy tenglik va inklyuzivlik tamoyillarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash, imkoniyati cheklangan talabalarga mos ta'lim sharoitlarini yaratish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi.

4.1-jadval

Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirishning tizimli tasniflash bosqichlari

1.	Diagnostik bosqich (2022-2023)	Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish ni tizimli tasniflash, ma'lumotlar to'plash, suhbatlar o'tkazish, darajalarini aniqlash, umumlashtirish va baholash.
2.	Dasturiy-ta'minot bosqichi. (2023-2024 yy)	Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish yo'llarini aniqlashga doir nazariy ma'lumotlar mazmuni aniqlanadi, dasturiy mahsulot tayyorlandi.
3.	Ta'lim-tarbiyaviy bosqich (2023-2024 yy)	Tayyorlangan metodik qo'llanmalar reja, dastur asosida talabalarda tajriba sinovdan o'tkaziladi.
4.	Yakuniy-umumlashtiruvchi bosqich (2024-2025 yy)	Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish ning pedagogik va mexanizmlari dinamikasini baholash va natijalari umumlashtiriladi. Istiqboldagi tarbiyaviy ishlarning yo'nalishlari aniqlanadi.

Mazkur fikrlar asosida **talabalar** uchun alohida ishlab chiqilgan **kompetensiyaviy diagnostika indikatorlari asosida tajriba sinov ishlari amalga oshirilgan(4.2-jadval)**. Raqamli vositalardan foydalanish ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlik, tezkor baholash va natijalarning shaffofligini ta'minlaydi

Yuqoridagi indikatorlar asosida **eksperimental va nazorat guruhlariga** bo‘lingan ta’lim jarayonida bosqichma-bosqich o‘zgarishlar kuzatildi.



Diagnostika natijalari asosida **ta’lim samaradorligining ko‘rsatkichlari** aniqlanadi va statistik tahlilga asoslanib xulosalar chiqariladi.

4.2.-jadval

Talabalarning innovatsion ta’limga tayyorgarlik darajasini baholash indikatorlari

№	Kompetensiya bloki	Ko‘rsatkichlar (indikatorlar)	Baholash darajalari
1	Bilim va anglash	Innovatsion metodlar mohiyatini tushunadi	past / o‘rtacha / yuqori
2	Amaliy qo‘llash	Raqamli texnologiyalarni mustaqil qo‘llay oladi	qo‘llay olmaydi / qisman / to‘liq
3	Muammoli vaziyatga yondashuv	Kreativ yechimlar ishlab chiqadi, loyiha ustida ishlaydi	passiv / faolligi past / faol ishtirok
4	Ijtimoiy-kommunikativ	Guruh bilan ishlay oladi, fikr bildiradi	yo‘q / qisman / to‘liq namoyon bo‘lgan
5	Refleksiya va baholash	O‘z faoliyatini tahlil qilishi, o‘zini baholay olishi	past / o‘rtacha / yuqori darajada

Tajriba – sinov natijalari bo'yicha tajribadan oldingi va keyingi o'rtacha o'zlashtirishlarini Student va Pirsonning X^2 matematik – statistika metodi yordamida tahlil etdik.



1-diagramma. Tajriba avvalida

2-diagramma. Tajriba yakunida

Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlar ta’lim jarayonini sezilarli darajada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tajribalar doirasida qo‘llanilgan interaktiv o‘qitish usullari, masofaviy ta’lim platformalari va boshqa innovatsion texnologiyalar talabalarning bilim olish jarayoniga faol jalb etilishiga, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga imkon yaratmoqda.

Tajriba-sinov ishlarining natijalari talabalar bilim darajasining oshishi, ularning darslarda faol ishtiroki va o‘qituvchilarning malakasini oshirishda ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatmoqda. Tajriba va nazorat guruhidagi talabalarlarda tajriba yakunida va avvalida o'rtacha o'zlashtirish 12 % ga yuqori ekanligi aniqlandi.

XULOSA

Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar asosida ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari mavzusi bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ta'lim sifati nazariyasi zamonaviy bosqichda sifat menejmenti va uzluksiz takomillashtirish yondashuvlarining paydo bo'lishi natijasida shakllandi. Ushbu yondashuvlar oliy ta'limda sifatni boshqarish tamoyillarini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuxart-Deming sikli va Kaydzan prinsiplarini pedagogik kontekstga moslashtirish orqali ta'lim jarayonini rejalashtirish, bajarish, tekshirish va takomillashtirish bosqichlariga bo'lish zaruriyati aniqlandi.

2. Jahon tajribasida MIT, KAIST, Kembrij va Tokiyo universitetlari ta'lim sifatini oshirishda immersiv texnologiyalar, AI-mentor tizimlari va gamifikatsiya elementlarini muvaffaqiyatli qo'llamoqda. Ushbu tajribalar milliy muhitga mos ilg'or amaliyotlarni tanlashni ta'minlaydi. Pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda o'qituvchilarning metodik va raqamli savodxonligi, shuningdek, empatik didaktik kompetensiyalari markaziy rol o'ynaydi. Ularni maxsus tayyorgarlik va muntazam malaka oshirish kurslari orqali rivojlantirish zarur.

3. Pedagogik innovatsiyalarni amalga oshirish mazmuni sifatida modul-monitoring-refleksiya-qayta rejalashtirish sikli, shaxsga yo'naltirilgan va muammoli ta'lim tamoyillari asosida bosqichma-bosqich tuzildi. Model doirasida metodologik (nazariy asoslar), tashkiliy (modul dizayni, interaktiv platformalar integratsiyasi), didaktik (interaktiv dars modullari, gamifikatsiya) hamda natijaviy (AI-mentor monitoringi, adaptiv baholash) komponentlarining o'zaro uyg'unligi ta'kidlandi.

4. O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar va sun'iy intellekt (AI) asosidagi modellar ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda. O'tkazilgan tajribalar natijalari shuni ko'rsatadiki, immersiv va AI-asosidagi modellar ta'lim jarayonida o'quv samaradorligini 58.4% gacha "5" baholi talabalar ulushini oshirish va "3" baholi ko'rsatkichlarni 11.6% gacha kamaytirish imkonini berdi.

5. Raqamli platformalar (Mentimeter, Kahoot, Jamboard, Padlet) va geymiifikatsiya elementlari interaktivlik darajasini va talabalar motivatsiyasini oshirishga yordam berdi. Bu jarayonlar talabalar o'rtasida faol ishtirokni rag'batlantirib, ta'limni yanada qiziqarli va samarali qilishga xizmat qilmoqda.

6. Pedagogik monitoring vositalari (AI-mentor, adaptiv testlash) orqali olingan ma'lumotlar talabalarning individual rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash va baholash jarayonlarini avtomatlashtirdi. Bu esa o'qituvchilarga har bir talabaning o'ziga xos ehtiyojlarini inobatga olib, ta'lim jarayonini yanada moslashtirish imkonini beradi.

7. Tajribada ishtirok etgan oliy ta'lim muassasalari (Guliston davlat universiteti, M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, Alfraganus universitetlari) natijalari innovatsion modelning universalligini va bosqichma-bosqich joriy etilishining samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi **ilmiy-metodik tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Shuxart-Deming va Kaydzan integratsiyasi asosida ishlab chiqilgan kompleks modelni metodik qo'llanma sifatida ommalashtirish;

2. O'qituvchilarning raqamli va metodik kompetensiyalarini mustahkamlashda "Innovatsion pedagogik raqamli texnologiyalar" bo'yicha malaka oshirish kurslari

tashkil etish;

3. Ta'lim sifatini nazorat qilish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun OTMlarda AI-asosidagi monitoring platformalarini joriy etish;

4. Innovatsion tajribalarni tarmoqlaro almashish va metodik tavsiyalar yaratish uchun mahalliy oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni birlashtiruvchi platforma yaratish;

5. ta'lim sohasidagi innovatsiyalarni sinovdan o'tkazish, tajriba almashish va yangi metodologiyalarni ishlab chiqish maqsadida mahalliy olimlarning ilmiy maktablari bilan hamkorlikda "Pedagogic Innovation Lab" markazlarini ochish;

6. MIT, KAIST, Kembrij va Tokiyo universitetlari tajribasini o'rganish va mos loyihalarga jalb etish orqali milliy modelni xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish;

7. Har bir oliy ta'lim muassasasida "Pedagogik innovatsiyalar bo'yicha resurs markazi" tashkil etilib, xalqaro tajriba (Kembrij, KAIST, NUS, MIT) asosida seminar-treninglar o'tkazilishi va mahalliy kontekstga mos innovatsion modul dasturlar ishlab chiqish;

8. Ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar va mehnat bozori o'rtasida innovatsion sheriklik platformalari va markazlari (startaplar, spin-off kompaniyalarni qo'llab-quvvatlovchi inkubatorlar, texnoparklar, ilmiy klasterlar, akselerator dasturlari, qo'shma ilmiy-tadqiqot loyihalari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, forumlar, malaka oshirish kurslari)ni tashkil etish;

9. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan, virtual laboratoriyalar, onlayn platformalar, ma'lumotlar bazalaridan foydalangan holda ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash orqali ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni tijoratlashtirishni jadallashtirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish.

**РАЗОВЫЙ УЧЁНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Ped.31.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ
АЛЬФРАГАНУС**

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

БЕКЕТОВ НУРСЕЙТ АЛИЖАНОВИЧ

**МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В
ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИННОВАЦИЙ**

13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений.

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора наук (DSc) по педагогическим наукам**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора наук (DSc) по педагогическим наукам по педагогическим зарегистрирована под номером B2026.1.DSc/Ped314 в Высшей Аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.afu.uz) и по адресу (www.ziyonet.uz) информационно-образовательного портала «Ziyonet».

Научный консультант:

Ботирова Шахло Исамиддиновна
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты:

Марданов Шукурулло Колдошевич
доктор педагогических наук, профессор

Рахмонова Мукаддас Кахрамановна
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Аннаева Назокат Ражапбаевна
доктор педагогических наук (DSc), доцент

Ведущая организация:

Узбекский национальный педагогический университет

Защита диссертации состоится « 30 » апрель 2026 г. в « 14:00 » часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Ped.31.01 по присуждению ученой степени при университете Альфраганус. (Адрес: 100190, г. Ташкент, ул. Юкори Коракамиш, дом 2а. Тел.: +998(78) 122-75-57; факс: +998(78) 122-75-57, e-mail: info@afu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре университета Альфраганус (зарегистрирован под № 11) (Адрес: 100190, г. Ташкент, ул. Юкори Коракамиш, дом 2а. Тел.: +998(78) 122-75-57; факс: +998(78) 122-75-57

Автореферат диссертации разослан « 16 » апрель 2026 года.
(Протокол реестра № 11 от 16 апрель 2026 года.



Н.А. Мирзаева
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор педагогических наук (DSc), доцент

М.Д. Омонова
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

М.Ф. Курбанова
Заместитель председателя научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор педагогических наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В современном мире педагогические инновации, повышение качества образования и подготовка студентов к профессиональной деятельности приобретают всё большую значимость. Процессы глобализации и развитие цифровых технологий требуют внедрения новых подходов и методов в образовательный процесс, что делает проблему повышения качества образования на основе педагогических инноваций в высших учебных заведениях особенно актуальной. Разработка эффективной системы менеджмента качества в высших учебных заведениях способствует повышению результативности образовательного процесса и обеспечивает формирование у студентов знаний и компетенций, необходимых для успешной деятельности на современном рынке труда. В процессе внедрения педагогических инноваций особое значение приобретает определение критериев и индикаторов оценки качества образования, что играет важную роль в повышении эффективности образовательной системы. Изучение теоретических и практических аспектов повышения качества образования на основе педагогических инноваций в высших учебных заведениях способствует формированию у будущего поколения высокого уровня профессиональных знаний и умений.

Мировая система образования демонстрирует необходимость внедрения новых педагогических подходов и инновационных методов обучения для обеспечения глобальной конкурентоспособности. Использование цифровых технологий и инновационных образовательных ресурсов способствует качественному совершенствованию образовательного процесса и расширению возможностей саморазвития обучающихся. Реализация педагогических инноваций в высших учебных заведениях позволяет не только модернизировать учебные программы, но и укреплять взаимодействие между преподавателями и студентами, обеспечивая инклюзивный характер образовательного процесса. В настоящее время проблема повышения качества образования на основе педагогических инноваций в высших учебных заведениях является одним из ключевых аспектов глобальной образовательной системы. Разработанная ЮНЕСКО стратегия «Образование 2030» направлена на повышение эффективности и инклюзивности образовательного процесса. В рамках данной программы особое внимание уделяется внедрению инновационных подходов, цифровых технологий и развитию сотрудничества на всех уровнях образования. Применение цифровых технологий в реализации инновационных подходов в высшем образовании способствует совершенствованию методов обучения посредством дистанционного образования и интерактивных платформ. В связи с этим методика повышения качества образования на основе педагогических инноваций остаётся актуальной как в теоретическом, так и в практическом аспектах.

В нашей стране уделяется особое внимание реформированию системы образования, в частности внедрению современных подходов в высшем образовании, развитию деонтологических компетенций у будущих педагогов, а

также подготовке конкурентоспособных кадров, соответствующих требованиям эпохи глобализации и рыночной экономики⁶. Реформа системы высшего образования в Республике, направленная на удовлетворение потребности в квалифицированных специалистах и повышение качества подготовки кадров на основе инновационных подходов и в соответствии с международными стандартами, становится одной из приоритетных задач. В образовательном процессе возрастает необходимость обеспечения интеграции науки и производства, а также развития компетентного потенциала личности посредством профессиональной ориентации. В данном контексте особое значение приобретает подготовка компетентных специалистов и эффективное использование инновационно-интегративных подходов для реализации принципа «от обучения к обучению других». Таким образом, применение инновационных образовательных технологий способствует повышению качества профессиональной подготовки и формированию специалистов нового поколения.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени направлено на обеспечение реализации задач, установленных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указе от 8 октября 2019 года №УП -5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Постановлении от 16 января 2019 года №ПП -4119 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы контроля качества образования», Указе от 6 ноября 2020 года №УП-6108 «О мерах по дальнейшему развитию сфер образования и науки в новый период развития Узбекистана», Указе от 5 октября 2020 года №УП -6079 «Об утверждении стратегии “Цифровой Узбекистан – 2030” и мерах по её эффективной реализации», а также Постановлении от 31 декабря 2020 года №ПП-4939 «О мерах по коренному формированию системы оценки квалификаций и обеспечению рынка труда квалифицированными кадрами», а также в других нормативно-правовых документах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научно-исследовательских работ по теме диссертации⁷. В системе высшего образования вопрос внедрения

⁶ Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni.

⁷ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida yoritilgan: <https://www.dissercat.com/skachat-besplatnye-dissertatsii-i-avtoreferaty-iz-rgb>; Ramsden, P. (2003). Learning to Teach in Higher Education. London: Routledge Falmer; Biggs, J., & Tang, C. (2011). Teaching for Quality Learning at University. McGraw-Hill Education; Hattie, J. (2009). Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. Routledge. Fullan, M. (2007). The New Meaning of Educational Change. Teachers College

педагогических инноваций с целью повышения качества обучения признаётся одним из приоритетных научных направлений в современном глобальном образовательном пространстве. Опыт развитых стран свидетельствует о том, что применение инновационных технологий способствует повышению качества преподавания, развитию личности студентов, раскрытию их творческого потенциала и формированию навыков самостоятельного обучения. В данном направлении активные научные исследования ведутся в ведущих научных центрах и высших учебных заведениях мира, в том числе в Университете Аризоны, Гарвардском и Мичиганском университетах (США), университетах Кембриджа, Оксфорда и Эдинбурга (Великобритания, Шотландия), Страсбургском университете (Франция), Сеульском национальном университете (Республика Корея), университетах Анкары, Гази, Хаджеттепе и Ондукуз Майыс (Турция), Московском государственном педагогическом институте (Россия), Южно-Казахстанском университете имени М.Ауэзова и Евразийском национальном университете имени Л.Н.Гумилёва (Казахстан), а также в Ташкентском государственном педагогическом университете имени Низами (Узбекистан). В указанных образовательных и научных учреждениях проводятся фундаментальные и прикладные исследования, направленные на разработку и внедрение инновационных педагогических технологий в образовательный процесс.

В мировой системе образования в сфере высшего образования активно проводятся исследования, направленные на разработку индивидуализированных, гибких и рефлексивных моделей обучения на основе использования искусственного интеллекта, цифровых технологий, иммерсивных сред, геймификации и адаптивных образовательных платформ. Эти модели ориентированы на повышение уровня академической успеваемости студентов, развитие коммуникативных компетенций, критического мышления и активности в коллективном взаимодействии (США). В Великобритании особое внимание уделяется изучению индикаторов качества образования, а также формированию педагогических моделей менеджмента качества в системе высшего образования на основе цикла Шухарта–Деминга по устранению дефектов и принципов непрерывного совершенствования Кайдзен. В рамках данных исследований рассматриваются вопросы постоянного мониторинга образовательных результатов, измерения и обновления показателей качества. В Южной Корее накоплен передовой опыт по созданию инновационной образовательной среды, интеграции дистанционных моделей обучения,

Press. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan. MIT Media Lab. (2021). *Learning Innovation Reports*. Cambridge, MA: Massachusetts Institute of Technology. Harvard Graduate School of Education. (2022). *Pedagogical Innovations in Higher Education*. Harvard University Press. University of Oxford. (2020). *Higher Education Teaching and Learning Research Papers*. Oxford University. Cambridge Assessment. (2019). *Assessment for Learning in Higher Education*. Cambridge University Press. Seung, H., & Jang, Y. (2019). *Gamification in Engineering Education: A Case Study at KAIST*. *Journal of Educational Technology*. Seoul National University. (2020). *Virtual and Augmented Reality in Higher Education: Pilot Studies and Implementation*. Seoul: SNU Press. Yılmaz, R. (2021). *Innovation in Turkish Higher Education: A Review of Modular Curriculum Design*. *Ankara University Journal of Educational Sciences*. Gazi Üniversitesi Eğitim Fakültesi. (2020). *Eğitimde Teknoloji Kullanımı ve Öğretmen Eğitimi*. Ankara: Gazi Üniversitesi Yayınları. Хазан, В.И. (2021). *Цифровые педагогические технологии в высшем образовании*. Москва: Изд-во МГУ. L.N. Gumilyov Eurasian National University. (2022).

определению и анализу индивидуальных образовательных траекторий студентов. В этих научных школах разработаны методики повышения качества образования на основе использования интерактивных цифровых платформ, систем AI-менторства и инструментов цифровой рефлексии. В Турции исследования направлены на интеграцию педагогических инноваций с профессиональными компетенциями преподавателя, а также на развитие практических навыков студентов посредством современных методов обучения, таких как проблемно-ориентированное обучение, проблемное обучение, проектное обучение и STEAM-интеграция. В Узбекистане в рамках программ международного обмена опытом особое внимание уделяется адаптации передовых практик к национальному контексту, разработке психолого-педагогических основ личностно-ориентированного обучения, созданию системы мониторинга качества, внедрению модульного обучения, цифровых технологий и индивидуализированных систем оценивания с целью повышения качества образования.

